

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### RAQAMLI O'LCHOV ASBOBLARI

*Mamadjanov Baxodir Djuraxanovich t.f.n.*

*Andijon mashinasozlik instituti*

*“Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiyalar” kafedrasi professori*

*Email: [bm02717272@gmail.com](mailto:bm02717272@gmail.com)*

*Mannobboyev Shuxratbek Soyibjon o'g'li*

*Andijon mashinasozlik instituti*

*“Elektrotexnika, elektromexanika va elektrotexnologiyalar” kafedrasi katta o'qituvchisi.*

*[shuxratbekmannobboyev@gmail.com](mailto:shuxratbekmannobboyev@gmail.com), +998934164047*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqlada bugungi kunda eng ko'p tarqalgan o'loch asboblaridan biri bo'lgan raqamli o'lchov asboblari to'g'risida ma'lumotlar taxlil qilingan. Mazkur maqlada "Raqamli o'lchov asboblari", ularning vazifalari ularga oid asosiy tushuncha va atamalar, o'lchash usullari va vositalari, ularning ishslash prinsiplari sodda va ravon yozilgan.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье анализируется информация о цифровых измерительных приборах, одних из самых распространенных сегодня измерительных приборов. В данной статье просто и доступно написаны «Цифровые измерительные приборы», их функции, основные понятия и термины, связанные с ними, методы и средства измерений, принципы их работы.

**ANNOTATION:** This article analyzes information about digital measuring devices, one of the most common measuring devices today. In this article, "Digital measuring instruments", their functions, the main concepts and terms related to them, measuring methods and tools, and the principles of their operation are written simply and fluently.

**Kalit so'zlar:** diskretlash, kvantlash, raqamli o'lchov asboblari funksiyasi, RO'A larining mo'ljallanishi, RO'A larining imkoniyatlari, analog-raqamli o'zgartikich, RO'A da o'zgartirish usullari, RO'A lari tarkibi, umumlashgan struktura sxema, RO'A larining turlari, xatoliklarni me'yorlanishi, raqamli voltmetrlar, amaliyatda qo'llanilayotgan RV lar, universal RV.

**Ключевые слова:** дискретизация, квантование, функции цифровых измерительных приборов, назначение ЦИП, возможности ЦИП, аналого-цифровой преобразователь, способы изменения ЦИП, состав ЦИП, обобщенная структурная схема, типы. ЦИП, нормализация погрешностей, цифровые вольтметры, практические РВ, универсальные ЦВ.


**Key words:** discretization, quantization, function of digital measuring devices, purpose of DMIs, capabilities of DMIs, analog-digital converter, conversion methods in DMIs, composition of

DMIs, generalized structural diagram, types of DMIs, error correction, digital voltmeters, DV used in practice s, universal DV.

Qandaydir chegaralar bilan chegaralangan har qanday uzluksiz kattalik vaqt bo'yicha (1,a-rasm) diskretlangan va sath bo'yicha (1,b-rasm) kvantlangan bo'lishi mumkin.

Diskretlash – bu uzluksiz kattalikning oniy qiymatlari faqat aniq vaqt momentlarida diskretlash momentlari saqlanib qolinadigan diskret kattalikka o'zgartirish operatsiyasi. Ikkita yaqinroq diskretlash momentlari orasidagi  $\Delta t$  vaqt oralig'i diskretlash qadami deyiladi. Diskret signal uzluksiz signaldan farqli o'laroq faqat cheklangan sonli qiymatlarga ega bo'lishi mumkin.

Kvantlash – bu uzuluksiz kattalikni oniy qiymatlarini majmui ma'lum qonun bo'yicha yuzaga kelgan fiksatsiyalangan qiymatlarini yaqinroqlari bilan almashtirish yo'li bilan diskret kattalikka o'zgartirish operatsiyasi. Ikkita qo'shni qiymatlar orasidagi ayirma  $\Delta x$  kvant deyiladi. Kvantlashda axborotning qismi yo'qoladi, lekin kvantlash natijasida olingan kattalikning qiymati kvantlash pog'onasi belgilaydigan aniqlikda ma'lum bo'ladi. Maromli kvantlash natijasida uzluksiz kattalikning oniy qiymatlari cheklangan sonli kvantlash pog'onalari bilan namoyonlanadi.



**1-rasm. Uzluksiz funksiyaning diskretlanishi**

**va kvantlanish diagrammalarini.**

O'lchanilayotgan uzluksiz kattalikni yoki bunga proporsional bo'lgan fizik kattalikni diskret shaklga avtomatik ravishda o'zgartirish, xuddi shunday raqamli kodlash va o'lchov natijasini sonlar ko'rinishida sanab olish tuzilmasiga berish raqamli o'lchov asbob (RO'A) lari yordamida amalga oshiriladi.

RO'A lar ko'pchegarali, universal bo'lib, o'zgarmas va o'zgaruvchan toklarni kuchlanishni, chastotani, fazani, qarshilikni, kuchlanishlar nisbatini va boshqa elektr hamda noelektr kattaliklarni o'lchash uchun mo'ljallangan. Bular tez va sodda yo'l bilan aniq o'lchovlar o'tkazishga, katta sondagi o'lchanilayotgan parametrлarni operativ nazorat etishga, o'lchov natijasidan subyektiv xatolikni chiqarib tashlashga, o'lchanilayotgan joriy axborotni katta aniqlikda va tezlikda qayd etishga va tezkor hisoblash mashinalariga ishlov uchun qulay shaklda berishga yo'l beradi.

Raqamli asbob tarkibiga analog-raqamli o'zgartirkich (ARO'), raqamli sanab olish tuzilmasi va avtomat qurilmasi kiradi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali


Raqamli asboblar uzlusiz kattalikni diskret kattalikka o'zgartirish usuli, ARO' ning struktura sxemasi, qo'llaniladigan texnik vositalar va muvozanatlashtirish usuli (kompensatsiya) bo'yicha tasniflanadi.

O'zgartirish usuli bo'yicha raqamli asboblar kod-, vaqt-, va chastota-impulslari o'zgartiruvchilarga bo'linadi. Kod-impulslari (razryadlar bo'yicha kodlash) o'zgartirishli raqamli asboblarda o'lchanilayotgan kattalik qiymatlari namunaviy kattalikning diskret qiymatlari qatori bilan ketma-ket solishtiriladi; vaqt-impulslari o'zgartirishli raqamli asboblarda o'lchanilayotgan kattalik qiymatlari vaqt intervaliga o'zgartiriladi; chastota-impulslari o'zgartirishli raqamli asboblarda o'lchanilayotgan kuchlanish qiymatlari impulslarning o'tishi chastotasiga o'zgartiriladi.

Raqamli asboblar ARO' ning struktura sxemasiga qarab to'g'ri va muvozanatlashtirishli o'zgartirishlilarga bo'linadi. To'g'ri o'zgartirishli asboblarda chiqishdan kirishga teskari bog'lanish bo'lmaydi, o'lchanilayotgan uzlusiz kattalik bevosita diskret kattalikka o'zgartiriladi.

Raqamli asboblarda o'lchov axboroti ko'z bilan ko'rib sanash uchun o'nli kod bilan berilishi va tashqi qurilmaga uzatish uchun esa ikkilik kodda chiqarilishi mumkin. Har bir raqamli asbob raqamli sanab olish qurilmasiga ega. Bu qurilma o'lchov natijalarini raqamli shaklda taqdim etishga mo'ljallangan belgilar indikatori deshifratordan iborat. Raqamli asboblarda keyingi paytlarda vakuumli (lyuminessentli), gazorazryadli, yarimo'tkazgichli (yorug'lik diodi matriksalari) va suyuq kristalli indikatorlar qo'llanilmoqda.

RO'A ning umumlashgan struktura sxemasi 2-rasmida keltirilgan. Bunda o'lchanilayotgan kattalik  $X_{o'lch}$  kirish qurilmasi KQ ga beriladi. Bu qurilmada kirgan signal masshtab bo'yicha o'zgartiriladi va agarda pomexa bo'lsa undan tozalanadi. ARO' da KQ dan chiqqan kattalik X raqamli sanash qurilmasi RSQ ga beriladigan N kodga aylantiriladi. N kod tashqi qurilmaga chiqarilishi mumkin, masalan, keyingi ishlov berish va saqlash uchun EHM ga chiqarilishi mumkin. RO'A ning ishini boshqarish qurilmasi BQ tomonidan RO'A ning barcha funksional bo'linmalariga ma'lum ketma-ketlikdagi komanda signallarini ishlab chiqarib boshqaradi.



2-rasm. RO'A ning umumlashgan struktura sxemasi.

RO'A tomonidan o'lchanadigan kattaliklar diapazoni odatda keng bo'lgani uchun qator poddiapazonlarga bo'linadi. O'lchov jarayonida kerakli diapazonni tanlash qo'l bilan yoki avtomatik holda bajariladi. Tanlangan diapazonda o'lchov doimo avtomatik ravishda bajariladi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

RO‘A larning asosiy parametrlariga o‘zgartirish aniqligi, o‘zgartirish vaqt, o‘zgartirish diapazoni, xal etish qobiliyatini (sezgirlikni) kiritish mumkin.

RO‘A larning xatoliklarini me’yorlash bir necha usulda amalga oshiriladi:

1) keltirilgan xatolikni me’yorlash;

2) nisbiy xatolikni ikki xadli ifoda bilan me’yorlash, ya’ni:

$$\delta = \pm a + b \frac{x_k}{x}, \quad (1)$$

yoki

$$\delta = \pm c + d \frac{x_k}{x} - 1, \quad (2)$$

bunda,  $a, b, c, d$  - doimiy koeffitsiyentlar;  $x_k$  - poddiapazonni katta qiymati;  $x$  - asbob ko‘rsatishi.

3) sanab olish birligida ifodalangan absolyut xatolikning qiymatini berish bilan.

Eng ko‘p hollarda me’yorlashning ikkinchi usuli qo‘llaniladi.

O‘lchaniladigan kattaliklarning turiga qarab RO‘A lar quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok voltmetrlari;
- 2) ommetrlar, o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok ko‘priklari;
- 3) kombinatsiyalangan asboblar;
- 4) chastota va vaqt intervallarini o‘lchagichlar;
- 5) maxsus RO‘A lar: temperatura, massa, tezlik va sh.k. larni o‘lhash uchun.

O‘lchov asboblari ichida raqamli volmetrlar (RV) alohida o‘rin tutadi. Bular o‘lchanilayotgan kuchlanishlarning keng diapazonida (1 mkV-1000 V) kichik o‘lchash xatoligi (0,01-0,1 %) bilan o‘lhash; o‘lchanilayotgan kuchlanishning qutblarini va chegarasini avtomatik ravishda tanlash; o‘lchov natijalarini raqamli ko‘rinishda chiqarish; raqam bosmalash qurilmasi yordamida hujjatli qayd etish; elektron hisoblash mashinalari va murakkab axborot-o‘lchov tizimlariga o‘lchov axborotini kiritish imkonini ta’minlaydi. Bularning ishlash tezligi bir sekundda 2 tadan 5000 o‘lchashgacha bo‘lib, kirish qarshiligi  $10^7$ - $10^9$  Om ni tashkil etadi. RV larning asosiy kamchiligi – sxemalarning murakkabligi va narxining yuqoriligi hisoblanadi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali


RV larning ish prinsipi asbobning sanab olish tuzilmasida raqamli shaklda namoyon bo‘ladigan o‘zgarmas yoki asta o‘zgaradigan kuchlanishni kodga o‘zgartirishdan iborat. Bundan kelib chiqib, RV ning struktura sxemasi kirish qurilmasi KQ, analog-raqamli o‘zgartkich ARO‘ va raqamli sanab olish qurilmasi RSQ dan tarkib topadi.

Kirish qurilmasi o‘lchanilayotgan kuchlanishning masshtabini o‘zgartirishga, o‘zgaruvchan kuchlanishni o‘lchashda esa o‘zgarmasga aylantirish va pomexalardan filtrlash uchun mo‘ljallanadi. Kirish qurilmasi tarkibida attenuuator (kuchlanish bo‘luvchi), kuchaytirgich, past chastotalar filtri va qutblar qayta ulagichi bo‘lishi mumkin.

Raqamli voltmetrlarning sxematik yechimi analog-raqamli o‘zgartkichning turi bilan aniqlanadi. Keng tarqalgan bo‘lib, kod-, vaqt-, chastota-impulslri o‘zgartirishli va ikkilangan integrallash usulidagi voltmetrlar hisoblanadi.

Raqamli voltmetrlarning ishlash prinsipi to‘g‘risida tasavvur qilish uchun misol tariqasida kod-impulslri o‘zgartirishli (razryadlar bo‘yicha kodlash) raqamli voltmetrning ishlash prinsipini xarakterlovchi struktura sxemasi 3-rasmida keltirilgan. Bu sxema bilan tanishib chiqamiz. Bunda o‘lchanilayotgan kuchlanish  $U_x$  attenuator orqali solishtirish qurilmasiga SQ ga uzatiladi, SQ ning ikkinchi kirishi diskretlangan kompensatsiya kuchlanishi  $U_k$  kiritiladi,  $U_k$  namunaviy kuchlanish manbai NKM va diskret kompensator DK tomonidan hosil qilinadi. Boshqarish qurilmasi BQ ishlab chiqaradigan komanda impulsleri ta’sirida o‘lhash operatsiyalari tashkil qilinadi va raqamli sanab olish qurilmasi RSQ ga o‘lchov natijasi ikkili kodda beriladi, unda deshifrator yordamida o‘nli kodga aylantirilib tabloga chiqariladi.

Kod - impulsli o‘zgartirishli RV lar xatoligi asosan solishtirish qurilmasi va namunaviy kuchlanishlar manbaining barqarorligiga bog‘liq bo‘ladi. Afzalligi bo‘lib tez ishlashi va statik, dinamik xatoliklari kamayishi hisoblanadi. Vaqt - impulsli o‘zgartirishli RV pomexalarga bardoshligi past bo‘lib, afzalligi soddaligidir. Pomexalar ta’siridagi o‘lchashlarda chastota - impulsli o‘zgartirishli RV va ikkilangan integralli RV lar qo‘llaniladi. Ikkilangan integralli RV ning xatoligi 0,05% dan kamini tashkil etadi, pomexalarga nisbatan bardoshligi yuqori, lekin tez ishlashi nisbatan kichik.



3-rasm. Kod-impulslri o‘zgartirishli RV ning struktura sxemasi.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Amaliyotda qo'llanilayotgan RV larning ba'zilarini xarakteristikalari bilan tanishib chiqamiz. Masalan:

Ил1513 xilidagi muvozanatlashirishli o'zgartirishli raqamli voltmetr o'zgarmas tok kuchlanishini o'lhashga mo'ljallangan. Bu asbob asosiy xatoligi 0,1 va undan yuqori bo'lgan voltmetrlarni tekshirishda namunaviy asbob sifatida ishlataladi. O'lhash diapazoni 0-1000 V, beshta poddiapazonga bo'lingan: 0,3; 3; 30; 300; 1000 V. Bitta o'lchov vaqt 0,02 sek. asosiy nisbiy xatoligi 3 V poddiapazonda

$$\delta = \pm 0,01 + 0,005 \frac{x_k}{x} , \quad (3)$$

boshqa poddiapazonlarda kuchlanish bo'luvchisining xatoligi ta'siri sababli ko'proq. Sezgirlik ostonasi 10 mкV; kirish qarshiligi 10-1000 MOm.

Ил1413 o'zgarmas tok kuchlanishini o'lhashga mo'ljallangan bo'lib, integrallovchi RA xiliga kiradi. Bu asboblar katta anqlikda o'lhash bilan birga pomexalarga bardoshlidir. O'lhash diapazoni 0-1000 V, beshta poddiapazonga bo'lingan: 0,1; 1; 10; 100; 1000V. Kirish qarshiligi 10-1000 MOm, sezgirlik ostonasi 10 mкV, anqlik sinfi 0,05/0,02 va 100; 1000 V poddiapazonlarda 0,06/0,02 tashkil qiladi.

O'zgaruvchan tok voltmetrlari tarkibida o'zgaruvchan kuchlanishni o'zgarmasga aylantirib beradigan o'lchov o'zgartkichi bo'ladi. O'zgaruvchan kuchlanish o'zgarmasga aylantirilib, o'zgarmas tok RA bilan o'lchanadi.

RA asbobda qo'llanilayotgan o'zgaruvchan kuchlanishni o'zgarmasga aylantiruvchi o'zgartkichning turiga qarab asboblar, yoki o'lchanilayotgan kuchlanishning ta'sir etuvchi (effektiv) qiymatiga, yoki uning o'rtacha to'g'rilangan qiymatiga reaksiya qiladi. Asbobning raqamli sanab olish qurilmasi o'lchanilayotgan sinusoidal kuchlanishning ta'sir etuvchi qiymatlarida axborot beradi. O'zgaruvchan tok RA lariga tegishli umumiy kamchilik bo'lib, ularning anqliagini nisbatan pastligi hisoblanadi.

10.4-rasmida RV7-22A raqamli universal voltmetrning (RUV) struktura sxemasi keltirilgan.

Asbobning ishlash prinsipi o'lchanayotgan kattalikni unga proporsional bo'lgan vaqt intervaliga o'zgartirishga va so'ngra bu intervalni diskret shaklga hamda raqamli kodga o'zgartirishga asoslangan.


O'lchanadigan  $U_{\sim}$ ,  $U_{\sim}$ ,  $R$ ,  $I_{\sim}$ ,  $I_{\sim}$  kattaliklar kuchlanish bo'luvchi va tegishli o'zgartkichlar orqali me'yorlangan o'zgarmas analog kuchlanishga transformatsiyalanadi. Analog-raqamli o'zgartkich me'yorlangan analog kuchlanishni raqamli kodga o'zgartirishni asosiy funksiyasini bajaradi. Kuchlanishni vaqt intervaliga o'zgartirish ikki taktli integrallash usulida amalga oshiriladi.

RV7-22A universal voltmetrning o'lhash diapazonlari:  $U_{\sim} = 0,2-1000$  B;  $I_{\sim} = 0,2-2000$  mA;  $R = 0,2-2000$  kОm;  $U_{\sim} = 0,2-300$  B;  $I_{\sim} = 0,2-2000$  mA va o'zgaruvchan tok va kuchlanishni o'lhashda chastota dipazoni 0,045-100 kGs ni tashkil etadi. Asbobning yo'l qo'yilgan asosiy xatoligi chegarasi o'lchanayotgan kattalik turi va poddiapazonlariga qarab (10.1) formula bilan baholanadi. Masalan, o'zgarmas tok kuchlanishini 0,2-200 V diapazonida o'lchaganda yo'l

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

qo‘yiladigan asosiy xatolik  $\pm [0,15 + 0,2(U_k/U_x)]$  bilan aniqlanadi. Asbob ishchi sharoitda o‘z texnik tavsiflarini 24 soat uzlusiz ishlaganda saqlab qoladi. Radga ishlash vaqt 17000 soatdan kam emas.



4-rasm. RV7-22A RUV ning struktura sxemasi.

RO‘A asboblari shchitli-statsionar va ko‘chma, mo‘ljallanishiga qarab birorta kattalikni o‘lchash uchun yoki universal turlarda ishlab chiqariladi. Narxi qimmat bo‘lishiga qaramasdan yuqori aniqlikda va keng diapazonlarda o‘lchash imkoniyati bu asboblarning qadrini ko‘taradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.J.Baratov, P.M.Mahmudov, A.U. Djalilov “Elektr o‘lchash asboblari va elektr o‘lchash”. Toshkent — «ILM ZIYO» — 2017.
2. P.Ismatullayev, Sh.Qodirova, G‘.G‘oziyev. “Elektr o‘lchash asboblari ostlash va ta’mirlash”. “Sharq” Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2018.

3. Yakubov M.S., Jabbarov N.G., Amirov S.F. Elektrotexnikaning nazariy asoslari va elektr o‘lchashlar. – T.: «O‘qituvchi», 2012.
4. Axrorov N. Metrologiya asoslari va elektr o‘lchamlaridan amaliy ishlar. – T.: «O‘zbekiston», 2014.
5. С.П. Скворнюк. «Электрические измерения». ФГБОУ ВО «Саратовский ГАУ». Саратов 2015.
6. Пустовая О.А. Феникс, «Электрические измерения». ISBN 978-5-222- 16097-8. 2010г.
7. Кравцов, А.В. Метрология и электрические измерения [Текст] : учеб.пособие для вузов / А.В. Кравцов.- Изд.2-е перераб. М.: Колос,2007.
8. 12. А.Ф. Котюк. Датчики в современных измерениях. — М.: Радио и связь, 2006.
9. Т.С. Ратхор. Цифровые измерения (перевод с нем.). — М.: Феникс, 2006.
10. Д. Фрайден. Современные датчики. Справочник. Пер. с англ. — М.: Техносфера, 2006.
11. Class notes on electrical measurements & Instrumentation for 5th & 6th semester of electrical engineering & eee (b.tech programme).
12. Sensors Series: Senior Series Editor: B E Jones Series Co-Editor: W B Spillman, Jr. PRINCIPLES OF ELECTRICAL MEASUREMENT.
13. Anderson D., Dzatko D., Mindsha ADAnalog Devices, www.analog.com 2015.
14. Advanced Information Advanced Information Networks, www.advancedinformation.net 2021.
15. Giorgio Rizzoni. Principles and applications of Electrical Engineering. Ohio State University. USA, 2015.
16. Dogan Ibrahim. Advanced PIC Microcontroller. Projects in C. From USB to RTOS with the PIC18F Series. Burlington, MA, USA, Jordan Hill, Oxford OX2 8DP, UK, 2020.
17. Tim Wilmhurst. Designing Embedded system with PIC microcontrollers. Principles and applications. Burlington, MA, USA, Oxford OX2 8DP, UK, 2014.